



UDK: 37.013

Shaxnoz SAMIYEVA,
BuxMTI Professori, DSc
E-mail: samieva-1978@mail.ru,
Nargiza ASLANOVA,
BuxDU tayanch doktoranti

M. Akhmedova taqrizi asosida

ESTETIK DUNYOQARASHNING NAZARIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida estetik tarbiyaning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi o'quvchilarda go'zallikni idrok etish, uni qadrlash, didni kuzatish hamda shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash ta'kidlanadi. Sharq mutafakkirlari – Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa allomalar qarashlarida estetik dunyoqarash va kreativlikning chuqur tahlil qilingan. Yunon falsafasida, Arastuning estetika va etik jarayonlarning o'zaro uzviy bog'liqligi hamda kalokagatiya ideali – go'zallik va yaxshilikning birligi haqida fikr yuritilgan. Muallif estetik dunyoqarashni hozirgi zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas qismi ekanligini asoslab, ta'lim-tarbiya amaliyotida uning metodologik asos bo'lib xizmat qilishini ochib bergan.

Kalit so'zlar: Estetik dunyoqarash, barkamol shaxs, ma'naviy-axloqiy kamolot, pedagogika, psixologiya, kreativlik, antik davr.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются роль и значение эстетического воспитания в образовательном процессе. Основной целью эстетического воспитания является формирование у учащихся восприятия красоты, ее оценки, вкусовых качеств, а также духовно-нравственное развитие личности. Эстетическое мировоззрение и творчество глубоко анализируются в воззрениях мыслителей Востока – Аль-Фараби, Аль-Бируни, Ибн Сины и других. В греческой философии рассматриваются идея Аристотеля о неразрывной связи эстетики и этических процессов, идеал калокагии – единства красоты и добра. Автор обосновывает, что эстетическое мировоззрение является неотъемлемой частью современного педагогического процесса, и раскрывает его методологическую основу в образовательной практике.

Ключевые слова: Эстетическое мировоззрение, гармоничная личность, духовно-нравственное совершенство, педагогика, психология, творчество, античность.

THEORETICAL BASIS AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF AESTHETIC WORLDVIEW

Annotation

This article highlights the role and importance of aesthetic education in the educational process. The main goal of aesthetic education is to instill in students the perception of beauty, its appreciation, observation of taste, and the spiritual and moral development of the individual. The aesthetic worldview and creativity are deeply analyzed in the views of Eastern thinkers - Al-Farabi, Al-Biruni, Ibn Sina, and other scholars. In Greek philosophy, Aristotle's idea of the inextricable link between aesthetics and ethical processes and the ideal of kalokagatiya - the unity of beauty and goodness are discussed. The author substantiates the fact that the aesthetic worldview is an integral part of the modern pedagogical process and reveals its methodological basis in educational practice.

Key words: Aesthetic worldview, harmonious personality, spiritual and moral perfection, pedagogy, psychology, creativity, antiquity.

Kirish. Insoniyat tarixida shaxs kamoloti, uning kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishida tarbiyaning o'rni beqiyos ekanligi barchamizga ma'lumdir. Yuksak salohiyatli, ma'nan sog'lom, badiiy didga ega barkamol shaxsni tarbiyalashning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri esa shubhasiz estetik tarbiyadir. O'quvchilarda nozik didlilikni, go'zallikni fahmlay va qadrlay olishga o'rgatish ushbu tarbiyaning maqsadlaridan biridir. Buning uchun esa avvalambor ta'lim oluvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantirish lozimdir. Estetik dunyoqarash bu o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik

olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun asosdir. Barkamol shaxsning estetik tarbiyasidagi zaruriy jihatlardan biri, uning eng yuksak nafasat tuyg'usiga ega bo'lishi, yurish-turishi, kiyinish madaniyatiga rioya qilishi, san'atni qadrlashi va ma'naviy jihatdan pok bo'lishida namoyon bo'ladi. Zamonaviy pedagog-tarbiyachilarning birdan-bir vazifasi ta'lim oluvchilarga ana shunday xislat va fazilatlarini tarkib toptirishdan iboratdir. Avvalo maqolamizning dolzarbligini namoyon qiluvchi so'z bo'lgan "estetik dunyoqarash" atamasiga izoh bersak. Estetik dunyoqarash tarixi mifologik ong obrazlarida mustahkamlangan, so'ngra zamonaviy tilda "go'zallik" deb ataladigan jumlagi mos keladigan dunyoning barcha tillarida kontseptual va og'zaki ta'rifni olgan: dunyo, inson va uning faoliyati mevalarining alohida qadriyat sifatida

tan olishdan boshlanadi. Shu bilan birga, go'zallik va foydalilik, ezgulik, haqiqat o'rtasidagi farqni anglash jarayoni, borliq va madaniyatning turli sohalarida go'zallikning o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini anglash bilan bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Estetik dunyoqarash yosh avlodning psixologik, irodaviy va ijodiy salohiyatini faollashtiruvchi mexanizm bo'lib, unga muammolarni ongli va samarali hal qilish, yangi g'oyalar yaratish, o'z kreativ faoliyatini ixtiro qilish, rejalashtirish va amalga oshirish, shuningdek, o'zi uchun san'atdagi shaxsiy o'rni va rivojlanish istiqbollarini ko'rish va amalga oshirish imkonini beradi. Sharq mutafakkirlari estetik dunyoqarash hamda kreativlikni shakllantirish masalalariga ko'p e'tibor qaratganlar. Farobiyning fikricha, ijodkorlik orqali inson o'z qobiliyatlarini namoyon etadi va jamiyatga foyda keltiradi[1]. Beruniy ilm va san'at o'rtasida uzviy bog'liqlik borligini ta'kidlagan [2]. Uning fikricha, ilm insonning aqlini rivojlantirsa, san'at uning his-tuyg'ularini boyitadi va estetik didini shakllantiradi. Ibn Sino ta'lim jarayonida bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish muhimligini ta'kidlagan. Uning tavsiyasiga ko'ra ehtiyohtkorlik bilan, har bir bolaga o'z qobiliyatlariga mos ravishda ta'lim berish va uning ijodiy imkoniyatlarini ochish zarur deb hisoblagan[3]. Sharq mutafakkirlarining ushbu qarashlari o'quvchilarda kreativ yondashuv vositasida estetik dunyoqarashni rivojlantirishning dolzarbligi va ahamiyatini yanada chuqurroq anglashimizga yordam beradi va bizning ta'lim-tarbiya faoliyatimiz uchun muhim yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Dunyoqarashni shakllantirish g'oyasi o'zining buyuk tarixiy ildizlariga ega. Yevropa falsafasining rivojlanishining boshlanishi miloddan avvalgi 5—4-asrlarda Qadimgi Yunonistondan boshlangan. Qadimgi yunon falsafasining dastlabki davridagi o'ziga xosligi tabiatning, umuman butun dunyoning, mohiyatini tushunishga intilishdir. Geraklit, Parmenid, Demokritlar bu borada o'zlarining mukammal ilmiy meroslarini qoldirishgan[4].

Antik davr falsafiy tafakkurida go'zallik va yaxshilik bir-biridan ajralmas holda talqin etilib, ular kalokagatiya idealida o'z ifodasini topgan. O'sha davr jamiyatining ma'naviy-estetik qarashlarida estetika bilan bir qatorda insonning ichki axloqiy barkamolli va ruhiy yetukligini ham mujassamlashtirgan. Buyuk olim Arastu o'z qarashlarida "estetika" va axloqni o'zaro uzviy bog'liq holda izohlagan. Uning nazdida go'zallik – bu qadrlil, maqtovg'a sazovor va ezgu fazilat bo'lgani uchun yoqimli bo'lgan hodisadir. Shu asosda, fazilat axloqiy mezon, qadriyat sifatida ham talqin etilgan[5]. Estetika va axloq ya'ni tarbiyani olim birgalikda yaxshilikni ifodalovchi vosita ya'ni inson kamolotini belgilovchi muhim mezon sifatida ham e'tirof qiladi. Ushbu qarashlar hozirgi pedagogik nazariya va amaliyot uchun ham ulkan metodologik qiymatga ega. Chunki ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning estetik dunyoqarashini shakllantirish va uni ma'naviy-axloqiy olamini boyitish bir-biridan ajralmas pedagogik faoliyat jarayoni hisoblanadi. Insonni go'zallikni anglash, uni qadrlash va hayotda tatbiq etishga o'rgatish – uning ichki ma'naviy dunyosini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu ma'noda, Arastuning oldingi davrida surilgan go'zallik va axloqning uyg'unlik haqidagi talqini zamonaviy estetik tarbiya

Tahlil va natijalar. Estetik dunyoqarashning asosiy jihatlari quyidagi rasmda berilgan 1-rasm.

konsepsiyasini boyituvchi muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, qadimgi dunyoda umuman tarbiya maqsadi estetik asosda namoyon bo'lgandir. Masalan, qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqarolarning har tomonlama yuksalishi va rivojlanishida, "ruh va badan" hamohangligini qaror toptirishga yo'naltirilgan edi.


Respublikamiz olimlaridan S.F.Abdirasilov, U.N.Nurtayev, O.R.Adxamova kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida estetik dunyoqarashning konseptual asoslarini yoritganlar. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan L.S.Vygotskiy, T.P.Mixaylova, A.B.Shcherbo, A.Leontev, D.Elkonin, O.Vasilchenko, E.Melkumova, V.Miretskaya, M.Suxomlinova, E.Emmanuel kabilarning ilmiy ishlarida shaxs ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari o'rganilgan. E.P.Torrance, N. Rogers, J.Purnell, P.Roberts, A.M.Galligan, Sh.Tatsuno kabi xorijiy olimlarning ishlarida shaxsning individual qobiliyatlari, ijodiy salohiyatini namoyon etish masalalari ochib berilgan. Ijodiy yondashish butunlay yangi g'oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsni badiiy rivojlantirishda muhim o'rinni egallaydi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki maxsus fanlarni o'qitish jarayonida estetik dunyoqarashni rivojlantirish (loyiha, hamkorlikda o'qitish, rivojlantiruvchi) texnologiyalari va o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiqish orqali dizayn yo'nalishi o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirish metodikasini takomillashtirgan. Undan tashqari dizayn yo'nalishi o'quvchilarida estetik dunyoqarashning shakllanganlik darajalari (moslashuvchan-kasbiy, loyiha-natijaviy, kreativ-kasbiy) va sifat ko'rsatkichlarini baholash (aksiologik, ijodiy-kognitiv, operatsion-faoliyatli) mezonlari ishlab chiqilgan [6].

Olima A.B.Shcherbo, o'z tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik ya'ni badiiy va estetik faoliyatni ta'minlaydigan qobiliyatini, boshlang'ich maktab o'quvchilarining pedagogik rivojlanishining pedagogik sharoitlari va ijodiy-estetik faollik qobiliyatlarini hisobga olishdan iboratligini ta'kidladi. U boshlang'ich maktab yoshida badiiy va estetik qobiliyatlarning eng samarali shakllanishini ta'minlaydigan jabhada ular haqida yaxlit tasavvur beradigan jihatlarni ochib berdi.

Bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda uning salohiyati va real imkoniyatlarini aniqlash, estetik ta'limning pedagogik asoslari tomonidan o'quv jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatga funksional bog'liqligini isbotlash ushbu muammolarda yechim bo'la oladi [7].

Xorijiy olim John Dyuning ta'lim falsafasi amaliy ta'limga, ya'ni o'quvchilarning faol ishtiroki va amaliy tajriba orqali o'rganishiga asoslangan. U o'quvchilarning o'z qiziqishlariga asoslangan va ular uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan topshiriqlarni bajarish orqali o'rganishini afzal ko'rgan. Uning fikricha, estetik tajriba nafaqat san'at asarlari bilan tanishish, balki har qanday faoliyat davomida hissiy zavq olish va go'zallikni idrok qilishni o'z ichiga oladi. U o'quvchilarni o'z tajribalariga asoslangan holda estetik xulosalar chiqarishga undagan.



1-rasm. Estetik dunyoqarashning asosiy jihatlari.

Ijodiy shaxsni shakllantirish vositasi sifatida o'smir yoshdagilar, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining badiiy-estetik dunyoqarashini rivojlantirish ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Badiiy-estetik dunyoqarashning rivojlanishi insonning voqelikka estetik munosabatini, shu jumladan, dunyoni badiiy jihatdan anglash, san'at dunyosiga oshno etish, badiiy-ijodiy qobiliyat, badiiy-estetik qadriyatlar tizimini maqsadga yo'naltirilgan tarzda shakllantirishga imkon beradi. Estetik dunyoqarashni rivojlantirish estetik tarbiya negizida amalga oshadi. Ta'lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o'z diqqat e'tiborini alohida shaxsga va ijtimoiy guruhga qaratadi.

Estetik tarbiya o'z o'rnida ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladigan muhim vositadir. Chunki, tarbiyaning maqsadi va vazifasi inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, hatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazishdan iboratdir. Estetik tarbiya ham ana shu umumiy maqsad va vazifaning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinib, tarixiy-ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik hodisani anglatadi.

Shunday qilib, o'tkazilgan eksperimental tadqiqot maktab o'quvchilarini estetik tarbiyalash jarayonida badiiy media ijodining ahamiyati katta ekanligini va badiiy vosita ijodiyoti shaxsni estetik tarbiyalashning zarur vositasi ekanligini ta'kidlashga imkon beradi. Estetik tarbiyaning natijasi maktab o'quvchilarida estetik ideal va estetik didning

avlodini shakllantirishdan iborat bo'lib, ular estetik baholash mezonini bo'lib xizmat qiladigan barqaror, o'zgarmas shaxsiy fazilatlar. Ana shu shaxsiy fazilatlar nuqtai nazaridan talaba voqelikka estetik baho beradi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi nazariy tahlillar va amaliy qarashlar asosida shuni ta'kidlash joizki, estetik dunyoqarash shaxs kamolotida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Estetik dunyoqarashning o'quvchilarida go'zallik, uni qadrlash, tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy barkamollikka va ijodiy barkamollikni rivojlantirishning muhim omili bo'ladi. Sharq mutafakkirlari – Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa allomalarning qarashlari, Arastuning estetik va axloqiy qadriyatlarining uzviy bog'liqligi haqidagi fikrlari bugungi pedagogik nazariya va amaliyot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning san'atni anglash, nafislikni qadrlash, go'zallikni tatbiq etish bilan birga, jamoaviy ijodiy tafakkurini rivojlantirish, shaxsiy iste'dodlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu bois estetik dunyoqarashni rivojlantirish nafaqat shaxsning ma'naviy-axloqiy olamini boyitadi, balki uni barkamol shaxs sifatida kamol topishida ham hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Xulosa qilib, estetik tarbiya va estetik dunyoqarashni kuzatish masalasi zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, yosh avlodni ma'naviy yetuk, ijodkor, go'zallikni qadrlovchi barkamol shaxs sifatida tarbiyalash.

ADABIYOTLAR

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – B. 1593
2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar./Tarjimon A. Rasulov/. T.: "Fan", 1968.
3. Холикова Н., Х.Умаралиев. Комил инсон: ғоя, талқин ва тадриж. Тошкент,-2022 "Fan ziyosi" nashriyoti-2022
4. To'rayev, Baxtiyor. [O'zbekiston milliy ensiklopediyasi](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. Лосев А.Ф..История античной эстетики. Москва «АСТ»2000.стр.18
6. Abdirasilov S.F. Tasviriy san'at metodikasi. -T., «Ilm-Ziyo», 2006. 6-bet
7. Samieva, Sh. X. (2018). Kasb-hunar kollejlarda dizayn yo'nalishi o'quvchilarida estetik dunyoqarashni takomillashtirish metodikasi (PhD dissertatsiyasi)
8. Щербо, А. Б. Формирование у младших школьников способностей к художественно-эстетической деятельности. дис...канд. м,1983. 20 с
9. Olimov, S., Samiyeva, S., Ibragimov, U. B., Mirzoeva, S., & Sharopov, S. (2024, December). Methodology for Developing Students' Information and Communication Competence in the Process of Distance Learning in the Modern Educational Environment. In International Workshop Hybrid methods of modeling and optimization in complex systems (pp. 305-318). Cham: Springer Nature Switzerland.
10. Маджидова, М. Х., & Самиева, Ш. Х. (2020). Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания. Молодые ученые-развитию Национальной технологической инициативы (Поиск), (1), 803-805.
11. Анкваб, М. Ф., & Курбанова, Л. У. (2023). Эстетическое воспитание личности В народной педагогике. Мир науки, культуры, образования, (1 (98)), 199-201.
12. Самиева, Ш. Х., & Маджидова, М. Х. (2020). Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания.